RAQAMLI MUHIT SHAROITIDA O‘Z-O‘ZINI ANGLASH JARAYONLARI

Shukurullo Mardonov
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti b/b., p.f.d., professor
Umar Shukurullaev
145-umumta’lim maktabi o‘quvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23509470

Annotatsiya: *maqolada shaxs o‘zining zamon va makonda, tabiiy va ijtimoiy sohadagi o‘z o‘rnini ongli ravishda aniqlashi va baholashi, fe’l-atvor uslubi va faoliyat yo‘nalishini tanlashda shaxsiy tajriba va doimiy o‘zgarib turuvchi sharoitlarga asoslanishini asoslashga harakat qilingan.*

Tayanch so‘z va iboralar: o‘z-o‘zni anglash, “Men-g‘oya”, “Men-obraz”, “Men-tushuncha”, Men-tizim”, “Men-konsepsiya”, shaxsiy refleksiya.

Аннотатsiя: в статье речь идет о том, что в процессе самосознании личностью самого себя в пространстве и времени, сознательном определении и оценивание своего места в естественной и социалной сфере, а также обусловленности поведения и направления деятельнсти от личного опыта и меняющгося условий.

Ключевые слова *и выражаения: познание самого себа, “Я-идея”, “Я-образ”, “Я-понятие”, “Я-концепция”, собственная рефлексия.*

Abstract: *This article examines the process of self-awareness through which individuals consciously identify and evaluate their place in time and space, as well as in natural and social environments. Particular attention is paid to the role of personal experience and constantly changing circumstances in shaping individuals’ behavioral patterns and determining the direction of their activities. The article also seeks to substantiate the significance of self-awareness and personal reflection in the process of self-identification and personal development.*

Keywords: *self-awareness, self-concept, “I-idea”, “self-image”, “self-perception”, “self-system”, “self-concept theory”, personal reflection.*

Inson jamiyat qadriyatlarini o‘zlashtirishiga qarab, o‘z qadriyatlar tizimini, qadriyatli yo‘nalish olish ierarxiyasi tizimini tuzadi.

U o‘zini umuminsoniy qadriyatlarining tashuvchisi sifatida anglay boshlaydi, o‘z hayotidagi nimanidir ko‘proq, nimanidir kamroq e’zozlay boshlaydi. Uning o‘z-o‘zini anglashining samaradorligi uning olamga-yu o‘ziga, boshqa kishilarga qadriyatli munosabati bilan belgilanadi.

Qadriyatning qayta shakllantiruvchi funksisi uning yaratuvchilik kuchida va shu aososda yangi shaxsiy konstruksiyalari: “Men” obrazi”, “kelajak obrazi”da ko‘rinadi.

Maqsadga yo‘nalish olish qobiliyatining paydo bo‘lishi – maqsadni qo‘ya bilish qobiliyati va hayot istiqbolining paydo bo‘lishi yo‘nalish olishning yangi, yanada yuqoriroq fazasiga ko‘tarilishini shartlaydi – shaxs ongida ichki va tashqi rejalarni birlashtiradi.

Bunday holat shaxsning shunga tayyorligini, ya’ni o‘zining zamon va makonda, tabiiy va ijtimoiy sohadagi o‘z o‘rnini ongli ravishda aniqlashi va baholashi, fe’l-atvor uslubi va faoliyat yo‘nalishini tanlashda shaxsiy tajribaga va doimiy o‘zgarib turuvchi sharoitlarga asoslanishini taqozo qiladi.

Ong rivojlanishining ushbu bosqichida o‘z-o‘zini anglash jarayoni sodir bo‘ladi. Ong rivojlanishining ushbu darajasida o‘zini shaxs sifatida anglash ehtiyoji tug‘uladi. Bu o‘z navbatida o‘zini namayon qilish, o‘zini amalga oshirish va o‘zini o‘zi tarbiyalashga intilishini ta’minlaydi.

Bu holatni belgilashda adabiyotlarda turli atamalar ishlatiladi: “Men-g‘oya”, “Men-obraz”, “Men-tushuncha”, Men-tizim”, “Men-konsepsiya”.

Ayrim mualliflar ularni sinonimlar sifatida qo‘llashadi, boshqalari esa ularning umumlashuvi va barqarorligi ierarxiyasini o‘rnatishga harakt qilishadi: “Men-obraz”i – vaziyatdan holi nimanidir anglatadi; “Men-tushuncha”si – o‘z-o‘zini anglash barqaror strukturasi sifatida fikrlanadi; “Men-konsepsiya” – o‘z-o‘zini anglash va o‘z-o‘zini baholash, o‘zi haqidagi barqaror tasavvurlar tizimi sifatida qaraladi.

Qator mualliflar atamalar muammosini tartibga solishga harakt qilsalar (M.I. Lisina, V.F. Safin, V.V. Stalin), ko‘pchilik tadqiotchilar bu atamalarni noaniq, mujmal ma’nolarda qo‘llaydilar.

Atamalar “o‘z-o‘zini anglash”, “refleksiya”, “o‘zi haqida tasavvur” o‘zi haqidagi bilimlar, o‘zini o‘zi anglashning kognitiv jihatlarini yoritishda ishlatadilar. Birinchi va ikkinchi tushunchalar o‘zini o‘zi (izlash) anglash jarayonini ifodlaydi, oxirigisi esa – ushbu izlanishning natijasi sifatida qo‘llaniladi.

Yo‘nalish olish jarayonida yetakchi rolni o‘z-o‘zini anglash o‘ynaydi – o‘zining sifatlarini anglab yetish va ularni baholash, o‘zining real va xohishidagi “Men”ni tasavvur qilish, hayot-faoliyatining turli jabhalarida urinishlar (intilishlar) darajasi: introspeksiya (o‘z-o‘zini kuzatish), refleksiya (o‘z ruhiy holatini o‘ylash), o‘zini boshqalar bilan o‘zaro munosabatlarini baholash.

Shaxsning o‘zini o‘zi anglashida refleksiyaning roli muhimdir. Shaxsiy refleksiya – inson tomonidan o‘zining affektiv-ehtiyoj sohasining tadqiq qilinishi va uning faqat muloqot jarayonida, asosan konfliktli vaziyatlarda, vujudga kelishini ta’kidlash kerak.

Shaxsiy refleksiyani amalga oshirib, inson o‘zini muloqot sub’ekti sifatida tadqiq qiladi, o‘zi to‘g‘risida yangi bilimlarga ega bo‘ladi.

Shaxsiy refleksiyaning xarakterli jihati – inson tomonidan o‘z ichki olami va fe’l-atvori, o‘zgalar bilan konflikt jarayonida tadqiq qilinadi va bu o‘zining kamchiliklarini to‘g‘rilab olishga, rivojlanishning navbatdagi bosqichiga o‘tishiga turtki bo‘ladi (N.G. Alekseev, A.3. Zak, V.K. Zareskiy, I.N. Semenov, S.Yu. Stepanov).

“Men-konsepsiya”si nisbatan barqaror, ma’lum darajada anglab yetilgan, kechinmali, qaytrilmas individning o‘zi to‘g‘risidagi tasavvurlar tizimi bo‘lib, shu asosda u o‘zga kishilar bilan o‘z muomalasini o‘rnatadi.

“Men-konsepsiya” – o‘zini o‘zi turli sharoit va vaziyatlarda anglashi va baholashi natijasi, shuningdek, o‘zga kishilarning u to‘g‘risidagi fikrlari hamda o‘z fikrlarining o‘zga fikrlar bilan taqqoslanishidir.

“Men-real”ning (individ shu momentda o‘zini qanday deb biladi) hamda “Men-real”ning (individ o‘zini qanday bo‘lishini xohlaydi) farqi va o‘zaro nisbatiga K. Rojers e’tiborini qaratadi.

Uning ta’kidlashicha, agarda kutush darajasi va talab qilish darajasi tushunchalari individning maqsadli strukturasini tashkil qilsa, uning ortida o‘zi to‘g‘risidagi ma’lum tasavvurlar tursa, unda ideal va real “Men” tushunchalari shu tasavvurlarga tegishli bo‘ladi.

Ushbu tasavvurlarning analogi bo‘lib, motivasion sohasidagi iste’molchisi muvoffaqiyat motivi tushunchasi hisoblanadi. Oxirigisi, D. Myurrey talqinida, o‘zida “yuqori standartga erishish tendensiyasi”ni mujassamlaydi.

“Men-obraz”i va “Men-ideal” bir-biri bilan aloqador hamda dialektik o‘zaro ta’siri (Bolduin) natijasida rivojlanadi.

“Men-ideal” kelajakda insonning o‘z qadr-qimmatini sezish ichki mezoni bo‘lib xizmat qiladi (o‘zini baholash asosi).

Insonning rivojlanish jarayonida unda atrof-olam to‘g‘risida tasavvur shakllanadi. Bu tasavvurni olam obrazi, deb atash mumkin va u ierarxik yaxlitlik sanaladi hamda u kichik strukturalardan tashkil topgan bo‘ladi.

“Uni shuningdek, shaxs umid va farazlari tizimi sifatida tavsiflash mumkin: bu obrazda shaxs ishonadigan narsa ifodalanadi” (M.L. Rauste fon Vrixt). Inson olam obrazi asosida atrof borliq hamda o‘zi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tanlaydi va talqin qiladi, o‘z faoliyatini tashkil qiladi.

Men-konsepsiyasini shallanishida shaxs o‘zini o‘zi baholashi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘z-o‘zini baholash Men-konsepsiya komponenti sifatida – bu insonning o‘ziga nisbatan refleksiv munosabati bo‘lib, unda uning “Men”i bir vaqtda sub’ekt va ob’ekt shaklida o‘zini o‘zi tahlil qilishdir (nafaqat rasional-aqliy, balki hissiy shaklda).

O‘ziga nisbatan bunday munosabat usullari turlicha bo‘ladi, axloqiy ongda ular shunday tushunchlar vositasida ifodalanadi: uyat, o‘zidan g‘ururlanish, obro‘-e’tibor, shaxiy muvaffaqiyat, vijdon, bular o‘z strukturasida insonning prgressiv qobiliyatini hukumlarda qayd qiladi (O.G. Drobniskiy).

Psixologiyada o‘z-o‘zini baholash mexanizmlari aniqlangan. Ular quyidagilar:

-“o‘zining va o‘zgalarning shaxsiy sifatlarini qiyoslash;

-bilimlar asosida o‘zining bahosini chiqarish;

-hayotiy kechinmalarning ma’noviy integrasiyasi”.

O‘z-o‘zini baholashni shakllantirish muloqot bilan shartlangan.

Barcha funksiyalar, ularning munosabatlari negizida ijtimoiy munosabatlar, insonlarning real munosabatlari yotadi (L.S. Vыgotskiy).

O‘z-o‘zini baholash evolyusiyasida shaxs mustaqilligining o‘sishi yotadi. Bola-o‘quvchining o‘zini va o‘z fe’l-atvorini baholashi, qaida sifatida, uning ota-onalari va tarbiyachilarining bahosiga hamohang, o‘ziday aks etgan, takrorlangan bo‘ladi.

Bolaning o‘zini o‘zi baholashi, o‘zini o‘zi tavsiflashi uning guruhiy aloqadorligi bilan bog‘liq. Shaxs rivojlanishi bilan uning fe’l-atvori tashqi boshqaruvi ichki boshqaruvga o‘rnini bo‘shatib beradi.

Avvaliga bola boshqa kishilar bahosiga yo‘nalish olgan bo‘lsa, keyinchalik yoshi bo‘yicha asosiy rolni o‘z-o‘zini baholash egallaydi.

Ye.I. Savonko eksperimental tadqiqotlari natijalariga ko‘ra, o‘z-o‘zini baholashga yo‘nalish olish III sinfdan IX sinfga qarab o‘sib boradi, “tashqi” baholashga yo‘nalish olish esa kamayib boradi [141,145 b.].

“Men” obrazi, shuningdek, olam obrazining shakllanishi ham umumiy shaklda D. Mid, R. Berns, J. Piaje tadqiqot ishlarida ochib berilgan.

J. Piaje ko‘rsatishicha, o‘zro ta’sir natijasida “individ – muhit” tizimida tutashgan akkomodasiya (moslashish) va assimilyatsiya (o‘xshab ketish) jarayonlarida tushunchalar mazmuni o‘zgarib ketadi. Qachonki qayta aloqa mexanizmi bo‘yicha faoliyatda olingan ma’lumot, kutilgan natijaga mos baholansa, u olam obraziga o‘xshab ketadi va umuman o‘zgarmaydi.

Psixologik tadqiotlarning ko‘rsatishicha, “Men-obraz”i nisbatan sekin o‘zgaradi, chunki o‘zi katta “assimilyativ kuch”ga ega. Bu shuning bilan shartlanganki, “Men-obraz”i bilan bog‘liq bo‘lgan kutilayotgan natija himoyasizlik hissini uyg‘otadi, natijada, insonning yangi ma’lumotlani qabul qilish imkoniyatlari qisqaradi.

“Men” obrazini yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi tizim sifatida tushunish amerika psixologi M. Rozenbergga bir necha muxtor o‘lchamlarga ajratish imkonini beradi, ulardan empirik psixologik tadqiotlarda turli odamlarning o‘zini anglash drajasini qiyoslashda foydalaniladi.

Bu tadqiqotlar pedagogika fani uchun juda muhim, chunki unda shaxsdagi turli sharoitlarda rivijlanuvchi o‘zgarishlarni qayd qilish imkoni bor.

Birinchidan, bu kognitiv murakkablik va differensiallik bo‘lib, ular shaxs tomonidan anglangan o‘z shaxsiy sifatlari soni va xarakteri: shaxs o‘z sifatlarini qanchalar ko‘p angalsa va bu sifatlar murakkab va umumlashgan bo‘lsa, uning o‘zini anglash darajasi shunchalar yuqori bo‘ladi.

Ikkinchidan, bu “Men-obraz”ining aniqlik, ravshanlik darajasi, uning individ uchun sub’ektiv mohiyatliligi hisoblanadi.

Bir kishi o‘zi to‘g‘risida ko‘p o‘ylaydi, o‘z xulqini tahlil qiladi, o‘zini maqsadga yo‘naltirib, shakllantirishga harakat qiladi, boshqasida esa refleksiya rivojlanmagan, u xohish va vaziyat mantiqi bilan ish tutadi.

Refleksiya ob’ekti ham turlicha bo‘lishi mumkin: kimdir o‘zining tashqi ko‘rinishi bilan tashvishlangan bo‘lsa, boshqasi – aqliy qobiliyati bilan, uchinchisi esa – o‘zining axolqi bilan.

Uchinchidan, bu “Men-obraz”ining ichki yaxlitlik va ketma-ketlik darajasidir.

Modomiki inson o‘zini turli nuqtai nazardan ko‘rar ekan, uning o‘z-o‘zini anglashi hamisha chalqashli bo‘ladi. Jumladan, “Men-ideal” hech qachon “real” bilan mos kelmaydi va bu qarama-qarshilik o‘z-o‘zini tarbiyalashda harakatga keltiruvchi kuch sanaladi. Ammo o‘z-o‘zini anglash qarama-qarshiligi xarakteri turlicha bo‘lishi mumkin.

“Men-obraz”i hamisha o‘zida ma’lum komponentlarni (o‘z jismi to‘g‘risidagi tasavvuri, o‘z psixologik xususiyatlari, axloqiy sifatlari) mujassalasada, ularning konkret mazmuni va mohiyati ijtimoiy va psixologik sharoit va holatlar ta’sirida almashinib turadi.

Bundan tashqari, inson nafaqat “biladi”, “ochadi”, balki o‘zini faol shakllantirib boradi. O‘zining qandaydir qobiliyatlarini anglab yetish ham uning o‘z-o‘ziga baho va intilishlarini o‘zgartirib yuboradi, qobiliyatlar esa nafaqat o‘zini ko‘rsatadi, balqi faoliyat jarayonida shakllanib boradi.

Inson o‘zini qadriyatlarning universal tashuvchisi sifatida ontogenezning boshlang‘ich bosqichida umumiy ijobiy “baholash - o‘z-o‘zini baholash”da anglaydi, qachonki bu uning “men-yaxshi”sida ifodalangan bo‘lsa.

Albatta, yosh o‘tishi bilan olamni ko‘rish gorizontlari ham o‘zgaradi, hayot makoni kengayadi hamda hayot-faoliyati masshtablari ham o‘zgaradi, ammo umumiy mohiyat o‘zgarishsiz qoladi va o‘z-o‘zini anglash ijobiy vektori tomon intilaveradi.

Adabiyotlar

1. Анисимов С.Ф. Духовные ценности: производство и потребление. - М.: Мысл,1988. -253 с.

2. Архангелский Л.М. Ценностные ориентации и нравственное развитие личности. - М., 1987. - С. 64.

3. Афанасева И.Г. Социалистические ценности и ценностные ориентации личности. - М.: Изд-во МГУ, 1986. - 59 с.

4. Бим-Бад Б.М. Педагогическая антропология. –М.: УРАО, 2003. -208 с.

5. Блюмкин В.А. Мир моралных ценностей. - М.: Знание, 1981. -64 с.

6. Выготский Л.С. Собр. соч. в 6-ти т. М., Т. 3., 1983. - 368 с. Т. 4., 1984. - 432 с. Т. 6., 1984. - 400 с.

7. Дробницкий О. Проблемы нравственности. - М.: Наука, 1977. - 334 с.

8. Казакина М.Г. Ценностные ориентации школников и их формирование в коллективе. - Л., 1989. - 85 с.

9. Казакина М.Г. Жизненные цели как компонент направленности личности школников //Проблемы единства обучения и воспитания. - Л., 1978.

10. Кон И.С. Открытие "Я". - М.: Политиздат, 1984. - 367 с.

11. Мардонов Ш.К. Педагогик аксиологияга кириш. Дарслик. - Тошкент:Зебо принт, 2023. -267 б.

12. Сластенин В.А, Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Общая педагогика. - М.:Владас, 2003. -256 с.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI
TPMI
1929